



## ESHITISHIDA NUQSONI BO‘LGAN BOLALARNI OILADA MULOQOTCHANLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK SHART- SHAROITLARI

*Haqberdiyev J.A.*

*Jizzax davlat pedagogika universiteti*

*Maxsus pedagogika kafedrasi o‘qituvchisi*

**Tayanch so‘zlar:** oila, eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar, muloqot, koomunikativlik, oilaviy munosabatlar, imo-ishoratili, daktilologiya, eshitish chastotasi.

**Ключевые слова:** семья, слабослышащие дети, общение, сокоммуникатсия, семейные отношения, жест, дактилология, частота слуха.

**Key words:** family, hearing-impaired children, communication, co-communication, family relations, gesture, dactylogy, hearing frequency.

### **Резюме:**

Ushbu maqolada eshtishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning psixologik rivojlanish xususiyatlari, nutqining rivojlanishi, tovushga nisbatan munosabati, muloqot tushunchasi, muloqot madaniyati, idrok etilayotgan tovushlar chastotasiga qarab guruhlanishi, kar bolalar bilan muloqot qilishning asosiy usuli, imo-ishoralar va daktilologiya haqida fikr yuritiladi.

### **Резюме:**

В данной статье рассмотрены особенности психологического развития детей с нарушением слуха, развитие речи, отношение к звуку, понятие общения, культура общения, группировка по частоте воспринимаемых звуков, основной способ общения с помощью карбол, жестов и дактилологии. обсуждалось.

### **Summary:**

In this article, the features of psychological development of children with hearing impairment, speech development, attitude towards sound, concept of communication, communication culture, grouping according to the frequency of perceived sounds, the basic method of communication with carbol, gestures and dactylogy are discussed.

Oila inson uchun muqaddas maskan, kishilik jamiyatining ijtimoiy poydevoridir. Oilaviy turmushning asosiy maqsadi – bu sog‘lom farzand ko‘rish orqali aholini qayta tiklash, avlodlar bilan ajdodlar vorisligi va davomiyligini hamda yer yuzida insoniyat tarixiy taraqqiyotini ta‘minlashdan iboratdir.

Oila har bir shaxsda ilk yoshligidan boshlab shakllanadigan insoniy fazilatlar, ezu-istaklar, qadriyatlar takomil topadigan, ming yillar davomida shakllangan



o‘zbek xalqining qadriyatlari va ma‘naviy merosi ravnaqini ta‘minlovchi tarbiya maskanidir. Bola shakllanishining ilk maktabi esa ota-onaning o‘zaro munosabatlari majmui bo‘lib hisoblanadi. “Oila haqida so‘z yuritar ekanmiz, avvalo ko‘z o‘ngimizda ona siymosi shakllanadi. Oila muqaddasligini ta‘minlovchi birinchi omil – ona, ahli ayolning pokizaligi, oqilaligi, mehru-muruvvati, sadoqati va vafodorligidir”. Ota-onalar munosabatlarda namoyon bo‘luvchi o‘zaro hurmat, mehr-oqibat, halollik, poklik, mehnatsevarlik, insonparvarlik kabi oliy toifadagi qadriyatlar ularning o‘zaro munosabatlarida uyg‘unlasha borib, oilada o‘zaro munosabatlar maromini vujudga keltiradi. Oiladagi ushbu ijtimoiy jarayon eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning moddiy olam, ijtimoiy turmush haqidagi tasavvurlari, nuqtai nazarlari, tushunchalari, dunyoqarashlari va sharqona odob-axloq qoidalari va ularga amaliyotda rioya etishning to‘g‘ri yo‘l-yo‘riqlarini ko‘rsatadi. Bunday bolalarning ma‘naviy qiyofasi, ularning xatti-harakati, xulq-atvori dastlab oilaviy munosabat madaniyatida shakllanadi.

Tarixiy ma‘lumotlarning guvohlik berishicha, oilaviy munosabatlar madaniyati sharq xalqlarida juda qadimdan rivojlangan ijtimoiy voqelik ekanligini ko‘rsatadi. Qadimgi xalqlardan qolgan asori-atiqalarda, muqaddas diniy manbalarda, o‘zbek xalqining og‘zaki ijodi durdonalarida, sharqning buyuk mutafakkirlarining asarlarida sharq xalqlari, xususan o‘zbek xalqiga xos oilaviy shaxslararo munosabatlarda namoyon bo‘ladigan odob-axloq qoidalari, me‘yorlari, insoniy fazilatlar ifodasi to‘g‘risida qimmatli ma‘lumotlarni uchratish mumkin. A.Fitrat intizomlilikning ijtimoiy mohiyatini ta‘riflar ekan, o‘zining “Oila yoki oila boshqarish tartiblari” asarida shunday deb yozadi: “Har bir millatning saodati va izzati, albatta shu xalqning ichki intizom va totuvligiga bog‘liq. Tinchlik va totuvlik esa shu millat oilalarining intizomiga tayanadi. Qayerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli qv muntazam bo‘ladi”.

O‘z-o‘zidan ravshanlashadiki, oilaviy tartib-intizom muammolari uning xuquqiy vazifalarini belgilaydi. Bunda eng muhimi, oilaning har bir a‘zosiga xos ichki intizom madaniyati, o‘z burchi va ma‘suliyatini anglashi bilan birga ular oilaviy muhitda o‘z o‘rnini belgilay olishi, oilaviy munosabatlarni hurmat qila bilishi, oila iqtisodiy-ijtimoiy imkoniyatlarini hisobga olishi, oila sha‘nini sharflashi, xullas, oilada o‘z shaxsiy halovatini his qilmoq uchun halol va samimiy bo‘lmoqqa erishishi zarur.

Oilalariga xos muammolarni o‘rganish yuzasidan bir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Ana shu ilmiy ishlarda oila-nikoh munosabatlari, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, o‘zbek oilalaridagi milliy o‘ziga xoslik, undagi



nizolar va ularni keltirib chiqaruvchi muhim sabablar, ajralishlar va ularning salbiy asoratlari kabi bir qator masalalar har tomonlama o'rganilib tahlil qilingan. Biroq, yuqoridagi ilmiy izlanishlarda oila barqarorligiga shaxslararo munosabatlar ta'sirining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari maxsus tadqiqot predmeti sifatida o'rganilmagan. Aslida oilaviy turmushda yuzaga keladigan muammolar, hatto oilaning buzilishi va uning salbiy asoratlari, hamma-hammasi undagi shaxslararo munosabatlar ta'sirining natijasi ekanligini hech qachon unutmasligimiz kerak.

Oilaviy munosabatlar farzandlarning aqliy, ruhiy kamolotini ta'minlab, ota-onalarda o'ziga xos faollikni ham yuzaga keltiradi. Oiladagi shaxslararo munosabatlarga putur yetkazadigan holatlardan bittasi oilada imkoniyati cheklangan farzandning tug'ilishi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning yosh davrlariga xos jismoniy, psixik va fiziologik xususiyatlarning mavjudligi, bolalar turmushini tashkil etish va qulay ta'lim-tarbiya shart-sharoitlarini yaratishda ushbu omillarni hisobga olish zarurligi bilan belgilanadi.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning rivojlanish xususiyatlari va imkoniyatlari, ularga ilk davrdan boshlab korreksion-pedagogik yordam ko'rsatish zaruratidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Eshitish qobiliyatining pasayishi bolaning umumiy va psixik rivojlanishiga, eng asosiysi nutqining shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Eshitmaydigan va zaif eshituvchi bola maxsus o'rgatib borilmasa, u gapira olmaydi, atrofdagilar bilan muomalada esa chegaralangan miqdordagi imo-ishoralardan foydalanadi. Bolalar kundalik hayotida kattalarga taqlid qilgan holda oddiy amaliy faoliyat turlarini bajara oladilar, turli buyumlarning funksional vazifalarini o'zlashtiradilar va ulardan to'g'ri foydalanadilar, o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish malakasini egallab oladilar. Bunday bolalarga maxsus ta'lim berish shart-sharoitlari yaratilmagan holda, ular o'zgarar nutqini idrok eta olmasligi oqibatida sensor va aqliy rivojlanishi so'zlashuv nutqning ta'sirisiz kechadi. Eshitish qobiliyatining pasayishi va nutqiy rivojlanishning buzilishi oqibatida bolaning rivojlanishi to'xtamasa-da, ancha cheklanib qoladi.

Oila sharoitida ota-onalarning o'zlari atrofdagilar bilan ijobiy muloqot qila olish ko'nikmalariga ega bo'lishlari hamda farzandlarda ham juda yoshlikdan muloqot madaniyati sifatlarining shakllanib borishiga e'tibor qaratishlari zarur.

Har bir shaxs "muloqot jarayonida ijtimoiy tajriba, ta'lim-tarbiya, turli munosabatlar, axloqiy me'yorlar g'oya va mafkura omillari ta'sirida yashab ijtimoiylashadi va shaxs sifatida kamolotga yetadi. Kishilar o'rtasidagi o'zaro muloqot pedagogik-psixologik fanlarning asosiy kategoriyalaridan biri



hisoblanib, u o‘z ichiga shaxslararo munosabatning eng muhim mexanizmlarini qamrab oladi”.

“Muloqot” tushunchasi lug‘aviy jihatdan arab tilidan tarjima qilinganda “uchrashish”, “ko‘rishish”, “qabul qilish” degan ma‘noni anglatadi. Mazmunan esa muloqot “ikki yoki undan ortiq shaxslarning o‘zaro bir-biriga ta’siri etishi” hisoblanadi.

**Muloqot** – 1) kishilarning o‘zaro aloqasi, bir-birlariga ta’sir ko‘rsatishlari kishilar o‘rtasidagi aloqani tiklash va rivojlantirish jarayoni;

2) kishilarning bir-birlariga ta’sir ko‘rsatishi asosida ular o‘rtasida ro‘y beradigan axborot almashinuvi.

**Muloqot madaniyati** – yuksak darajadagi muloqot ko‘nikmalariga egalik.

Aksariyat holatlarda muloqot madaniyati “kommunikativlik” (“muloqotga kirisha olish”) tushunchasi bilan ham ifodalanadi.

**Kommunikativlik** – shaxslararo muloqot madaniyatiga ega bo‘lish, bolani tinglash va eshitish qobiliyati, muomalaga kirisha olish va aloqa o‘rnatish, axborot to‘plash, turli ijtimoiy munosabatlar o‘rnatish va rivojlantirish, bolaning verbal va noverbal xulq-atvorini kuzatish.

Oilada bolalar bilan muloqot deganda, ota-ona va bolalarining o‘zaro muloqotga kirishish tizimi tushuniladi, uning asosiy mazmuni o‘zaro axborot almashish, shaxsni bilish, tarbiyaviy ta’sir o‘tkazish sanaladi. Ota-onalar bu jarayonni faollashtiruvchisi sifatida maydonga chiqadi, uni tashkil etadi va boshqaradi.

Eshitishning pasayishi bolaning nutqiy rivojlanishiga salbiy ta’sir etadi: nutqning muloqot qilish, idrok etish, fikrlash, bilish faoliyatini rivojlantirish vositasi sifatida rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi. Eshitishning pasayishi bilan bog‘liq umumiy va xususiy jihatlarni tushunish uchun bolalarning psixik rivojlanish xususiyatlarini bilmoq zarur. N.M. Logovskiy, eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar eshitish idrokini faollashtirish va rivojlantirish mumkinligini e’tirof etadi. Ushbu olim eshitishda nuqsoni bo‘lganlikda ruhiy rivojlanish buzilishini kompensatsiyasida ko‘ruv idrokining ahamiyatini alohida ta’kidlaydi.

Intellektual rivojlanishi me’yorda bo‘lgan kar bolalarning nutqiy rivojlanishi eshitishi risoladagidek bo‘lgan bolalarga nisbatan kechroq boshlanib, ravon gapirish bosqichiga yetmaydi. 1yoshdan 6 yoshgacha bo‘lgan kar bolalarga turli tuman ovoz chiqarish, gugulash, g‘uldirash, lablarni cho‘lpillatish, ovozsiz artikulyasiya qilish, turli xatti-harakatlar orqali o‘z xohish - istaklarini, munosabatini bildirishga harakat qilish o‘ziga xos xususiyatdir. Odatda kar bolalar jarangdor ovozga, kulgiga, tabiiy yig‘iga ega bo‘ladilar. Ovozni

qabul qilish qobiliyati yo'qligi tufayli o'rgatilmagan kar bolalarda aksariyat hollarda ovozga (reaksiya) munosabat bildirish hislatlari ular katta bo'lgan sari keskin susayib boradi. Ko'pchilik kar bolalarda gapiruvchining lab harakatini kuzatish, lab harakatiga ovoz chiqarib yoki chiqarmasdan tahlid qilish holatlari kuzatiladi.

Kar bolalarning sensor va aqliy rivojlanishi, eshitish qobiliyatining rivojlanishi, odatda kar bolalar kuchli tovushlarni: uchayotgan samolyot ovozini, parovoz qichqirig'ini, qattiq chiqarilgan mashina signalini, pianino, baraban, nog'ora kabi musiqa asboblarning ovozlarni sezadilar. Tovush to'liqlarini sezmaydiganlari kamdan-kam uchraydi. Kichik yoshdagi bolalarni tovushlarga munosabati turlicha bo'ladi. Ovozga nisbatan ularning ko'pchiligi ixtiyorsiz munosabat bildiradi: bola boshini ovoz manbai tomon buradi, tikilib qoladi uning ko'z qorachig'i kengayadi, alanglab qaraydi, tovush manbayini qidiradi, cho'chib ketadi, kipriklarni piriqtiradi, qizarib ketadi, kuladi, jilmayadi, yig'laydi.

Idrok etilayotgan tovushlar chastotasining doirasiga qarab 4 guruhdagi kar bolalar farqlanadi:

1-guruh – eng past chastotali tovushlarni idrok etadigan bolalar (125-250 Gs).

2-guruh – 500 Gs gacha bo'lgan chastotalarni idrok etadigan bolalar.

3-guruh – 1000 Gs gacha bo'lgan chastotalarni idrok etadigan bolalar.

4-guruh – keng diapazondagi chastotalarni, ya'ni 2000 Gs va undan balandroq tovushni idrok etadigan bolalar.

Eshitish qoldiqlari minimal bo'lgan (1-2 guruhdagi) kar bolalar yaqin masofadan qattiq tovushlarni (baqiriq, parovoz qichqirig'i, nog'ora ovozi) idrok etishga qodir bo'ladilar. 3-4 guruhdagi kar bolalarning eshitish qoldiqlari sezilarliroq bo'ladi, shu sababli ular kichik masofadan turli chastotalar ovozlari (turli musiqa asboblari va o'yinchoqlar, hayvonlarning qattiq hayqirishi, ayrim maishiy tovushlar: qo'ng'iroq, telefonning jiringlashi)ni idrok etib, farqlay oladilar. 3-4 - guruh kar bolalar tanish bo'lgan bir nechta so'z yoki bo'g'inlarni farqlay oladilar. Barcha kar bolalar turli miqdordagi eshitish qoldiqlariga ega bo'ladilar. Maxsus eshitish qobiliyatini rivojlantirish bo'yicha mashg'ulotlar borliqdagi tovushlarni bilishga xizmat qiladi hamda og'zaki nutqni rivojlantirishga yordam beradi. Hozirgi kunda tibbiyot muassasalarida eshituv holatini baholashda Xalqaro tasnif ko'rsatkichlaridan foydalaniladi. Ushbu tasnifga ko'ra eshituvning o'rtacha pasayishi 500, 1000, 2000 Gs chastotalarda aniqlanadi.

Zaif eshituvning 1-darajasi – eshituvning pasayishi 40 db dan oshmaydi.



Zaif eshituvning 2-darajasi – eshituvning pasayishi 40 db dan 55 db gacha bo‘ladi.

Zaif eshituvning 3-darajasi – eshituvning pasayishi 55 db dan 70 db gacha bo‘ladi.

Zaif eshituvchilikning 4-darajasi – eshituvning pasayishi 70 db dan 90 db gacha bo‘lishi bilan ifodalanadi.

Eshituvning pasayishi 90 dbdan o‘tib ketsa, bunday holat «karlik» deb tafsiflanadi.

Bu guruhlardan biriga kiruvchi bolalarda eshituv idroki ma’lum darajada mavjud bo‘lib, u nonutqiy tovushlarni farqlash imkonini beradi. Boshqa bolalarda eshituv idrokining darajasi balandroq bo‘lib, u unli tovush, bo‘g‘in, so‘zlarni farqlash imkonini berad.

Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar pedagogik jarayonida eshituv qoldig‘idan foydalanish imkonini beruvchi tovush kuchaytiruvchi apparatlar va maxsus eshituv xonalari alohida ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotlar natijalari ko‘rsatishicha, eshituv qoldig‘i mavjud bolalar nutqining umumiy ritmi, so‘zli va mantiqiy urg‘ularni oson egallaydilar, bu ular nutqini tushunarli va yaxlit bo‘lishga sabab bo‘ladi.

Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar bilan muloqotda pedagogik tayyorgarlikning muvaffaqiyatli bo‘lishi ko‘p jihatdan ota-onaning kommunikativ ko‘nikma va malakalarni egallashiga va uni qo‘llay olish layoqatiga bog‘liq. Muloqotning muhim komponenti, ota-onaning o‘z fikr va mulohazalarini, emotsional his-tuyg‘ularini aniq ifoda eta olish mahoratidir.

Oilada ota-onalar bolalar bilan muloqot jarayonida muntazam tarbiyaviy ta’sir o‘tkazish metodlari bilan ishlaydi. Masalan: biror-bir voqea, hodisaning mohiyatini tushuntirishda, eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolaga u tomonidan sodir etilgan biror-bir noto‘g‘ri xatti-harakat uchun dashnom berishda.

Ushbu vaziyatda ota-onalar, avvalo, nimalarga e’tibor berishi kerak:

birinchidan, vaziyat tahlil qilinadi;

ikkinchidan, murakkab vaziyatdan chiqishning mumkin bo‘lgan variantlari saralanadi;

uchinchidan, ushbu faoliyat, odatda tezkor amalga oshiriladi (bunda ham pedagogik kommunikatsiyaning o‘ziga xosligi namoyon bo‘ladi) va optimal metodlar tanlanadi, faqat shundan keyingina pedagogik ta’sir tashkil qilinadi.

Biroq hali tanlangan ta’sir metodiga adekvat bo‘lgan, u orqali pedagogik ta’sir amalga oshiriladigan muloqot tizimini topishimiz kerak. Ya’ni, ma’lum bir maqsadga qaratilgan umumiy pedagogik vazifani hal etgandan so‘ng, ta’sir metodini tanlab bevosita ta’sirni tashkil qilish uchun asosiy vazifa sifatida



kommunikativ vazifa belgilanishi kerak. Kar bolalar bilan muloqot qilishning asosiy usuli, imo-ishoralar orqali amalga oshiriladi.

*Daktilologiya* (qadimgi yunoncha: *δάκτυλος* [daktilo]- barmoq va qadimgi yunoncha: *λόγος* [logiya]) - nutq shakli; o'ziga xos tarzda qo'l barmoklari yordamida gaplashish. Muayyan alifbodagi har bir "harfni ifodalash uchun barmoqlarga turlicha shakl beriladi. Daktilologiyada bir yoki ikkala qo'l barmoqlaridan foydalanish mumkin (asosan o'ng qo'l barmoqlaridan foydalaniladi). Daktilologiya kar, kar-soqovlarning oson va tez so'zlashuviga imkon beradi. Kar va kar-soqovlar daktilologiya belgilarini ko'zi bilan qabul qiladi. Kar bolalar uchun bog'cha va maktabning boshlang'ich sinflarida daktilologiyadan asosiy o'qitish vositasi sifatida, shu maktabning yuqori sinflarida esa undan yordamchi o'qitish vositasi sifatida foydalaniladi. Kar-soqovlarga ta'lim berishda daktilologiya birdan-bir muomala vositasidir.

P.M. Boskis ilk bor tajriba materiallari asosida imo-ishora nutqini tahlil etgan. U tomonidan mimik ifodalashning turli usullari tavsiflangan: harakatlar, kechinmalarni imitatsiya qilish, predmetni ta'riflash (rasm ko'rinishda keltirish, plastik model), kerakli sifatiga ega predmetni o'ziga ko'rsatish; yanada umumlashtirilgan shartli ma'noga ega tarjima ishoralar.

Daktilologiya – kar va zaif eshituvchi bolalarning nutqining o'ziga xos shaklidir. U so'zlashuv nutqiga imo-ishora nutqiga nisbatan yaqindir. U yozma xarakterga ko'ra yozma nutqqa o'xshab ketadi. Uning vositalari grafik belgilar harflar emas, balki qo'l, barmoq harakatlari hisoblanadi. O'zbek tilining har bir harfi o'zining harakatli ifodasiga egadir.

Daktilologiya og'zaki nutqni o'zida namoyon qiladi, lekin suhbat jarayonida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar daktil nutqiga nisbatan imo-ishora nutqidan keng doirada qo'llaniladi. L.A.Novikova va Ye.N. Marsinovskaya tomonidan o'tkazilgan maxsus tadqiqotlarga ko'ra daktilologiya ham og'zaki nutq kabi kinestetik sezgilar asosiga quriladi.

Daktilologiyani yaxshi egallagan o'quvchilar so'zning tovush sostavini to'liq egallaydi. Ularda so'zning tovush va daktil obrazi o'rtasida shartli aloqalar o'rnatiladi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar tomonidan keng qo'llaniladigan imo-ishora nutqi muloqotga ehtiyoj yuzaga kelish natijasida namoyon bo'ladi. Kar bola qo'llaydigan tabiiy dastlabki imo-ishoralar juda soda bo'ladi. Masalan, u biror narsani xohlasa, uni qo'li bilan ko'rsatadi. Astasekin bu jarayon murakkablashib boradi, shartli harakterga ega bo'lib, muloqot funksiyasini bajara boshlaydi. So'zlashuv nutqidan farqli, imo-ishora nutqi ko'ruv va harakat sezgilari asosida namoyon bo'ladi.



Kommunikativ vazifa pedagogik faoliyatda, nisbatan ishlab chiqaruvchi xarakterga ega bo'lib, murakkab vazifani hal etadi. Zero u pedagogik vazifadan kelib chiqqan, shu sababli ota-ona tomonidan tanlanadi va belgilanadi. Aytish mumkinki, kommunikativ vazifa aynan kommunikatsiya tiliga o'tkazilgan pedagogik vazifaning o'zi. Kommunikativ vazifa pedagogik vazifaning asosini aks ettirib, unga nisbatan yordamchi, instrumental xarakterga ega bo'lgan jarayondir.

Muloqotning muhim komponenti, ota-onaning o'z fikr va mulohazalarini, emotsional his-tuyg'ularini aniq ifoda eta olish mahoratidir. Ma'lum ma'noda ota-ona pedagogik faoliyatida uning ruhiy ta'sirlanishi, qayg'urishi, boshqa kasb egalarining tabiiy his-tuyg'ularidan farq qiluvchi o'ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi. Ta'kidlash joizki, ota-ona o'zining kommunikativ vazifalarni bajarish jarayonida boshqa kasb egalari kabi tashqi muhitning turli ta'siri ostida va insoniy his-tuyg'ular girdobida yashaydi, kasbiy faoliyatining o'ziga xosligi ham ana shunda namoyon bo'ladi va ota-onaning ta'sirlanishi, his-tuyg'ulari, hayajoni pedagogik maqsadga muvofiq bo'lishi lozim.

Shunday qilib, muloqot oila sharoitida ota-ona va farzandlar o'rtasidagi eng muhim aloqa, o'zaro axborot almashish, hissiy kechinmalarni bayon qilish vositasi sanaladi. Oila a'zolarining barcha munosabatlari bevosita yoki bilvosita muloqot yordamida amalga oshiriladi. Psixologik nuqtai nazardan esa muloqot katta tarbiyaviy ta'sirga ega. Shu sababli ota-ona va farzandlar, umuman olganda, oilaning barcha a'zolari o'rtasida tashkil etiladigan muloqotning ijobiy ahamiyat kasb etishini ta'minlashga alohida e'tibor qaratish zarur. Bu borada asosiy mas'uliyat shubhasiz ota-onaning zimmasiga yuklatiladi. Ota-onalarning o'zlari samarali muloqot qilish uslublarini o'zlashtirgan holda farzandlarga ham shaxslararo munosabatlar jarayonida ushbu vositadan o'rinli, maqsadli foydalanish ko'nikmalarini tarbiyalab borishlari lozim.

#### Adabiyotlar:

1. Вольков Б.С., Волькова Н.В., Методы исследования в психологии. М.: "Владос", 2019 г.
2. Выготский Л.С. Обучение умственно отсталых детей во вспомогательных школах. М.: "Педагог", 2018й.
3. Детская практическая психология / Учебник / Под ред. профессора Т.Д. Марцинковской. М.: "ГАРДАРИКИ", 2019 г.
4. Akramova, X. (2020). Aqli zaif o'quvchilarda axborot dasturlari vositasida umumiy mehnat ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi. Arxiv Nauchnykh Publikatsiy JSPI, 15(1). izvlecheno ot [https://science.i-edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/916](https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/916)
5. Akramova, X. (2020). Zamonaviy multimedia vositalaridan foydalanish - muvaffaqiyat garovi . Arxiv Nauchnykh Publikatsiy JSPI, 1(12), 1-5. izvlecheno ot [https://science.i-edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/3162](https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/3162)